SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-iyul | 236-8-118-Q/24 | Uzun tuman hokimligi

Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Uzun tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman Ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda tegishli Davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish davomida hisobga olishni;

- 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini 3-ilovaga muvofiq Uzun tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga taqdim etilishini ta’minlasinlar.

4. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 85, 90^2-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasidan taqdim etiladigan 2024-2026-yillar uchun Davlat budjeti loyihasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan O‘rta muddatli budjetni tayyorlash bo‘yicha yagona uslubiy qo‘llanma hamda Uzun

tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi mahalliy budjetiga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdori va obektlarni loyihalashtirish, bo‘yicha xarajatlarning cheklangan miqdori mablag‘lariga muvofiqlashtiriladi.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Baratov)ga:

- tegishli budjet loyihalarini tayyorlash hamda budjet so‘rovlarini tuzish uchun tuman budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilariga budjet so‘rovini tuzish tartibini yuborish;

- budjet kodeksining 93-moddasiga asoslanib, tumanishchi guruhi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda, tumanmahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini joriy yilning 3-avgust kuniga qadar Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliyabosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Ishchi guruhi rahbari (B.Xasanov) barcha budjet muassasalari Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzishda:

- xarajatlar bo‘yicha – tuman, budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet so‘rovlari hamda tuman budjetining loyihalari, shuningdek tuman budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

- tuman mahalliy budjeti loyihasini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmasligini nazarda tutsin.

7. Uzun tuman Soliqinespeksiyasi (Sh.Qosimov) tuman bo‘yicha 2024-yil uchunUzun tuman budjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda Davlat budjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda soliq organlari va tuman boshqaruvi organlarining bo‘linmalari tomonidan ma’muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida tuman hamda soliq turlari kesimida kutilayotgan tushum miqdorini ishlab chiqib, tuman hokimligiga joriy yilning 1-avgust kuniga qadar taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tumanhokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi

BOZOROV XABIBULLA.SHERDONAQULOVICH

Uzun tuman hokimining
2024-yil 11-iyuldagi
236-8-118-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish va uni Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman Ishchi guruhi

T A R K I B I*

1.	B.Xasanov	-	tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	B.Baratov	-	tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3.	Sh.Qosimov	-	tuman Soliq inespeksiyasi boshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari

Ishchi guruhi a’zolari:

4.	M.Abdushukurov	-	tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
5.	S.Yuldashev	-	tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
6.	A.Sariev	-	tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
7.	I.Rajabov	-	tuman Madaniyat va turizm bo‘limi boshlig‘i v/b
8.	I.Xudayarov	-	tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi bosh mutaxassisi, ishchi guruhi kotibi

***** Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan hollarda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Uzun tuman hokimining
2024-yil 11-iyuldagi
236-8-118-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish

MUDDATLARI

1.	Uzun tumani	-	2024-yil 3-avgust

Uzun tuman hokimining
2024-yil 11-iyuldagi
236-8-118-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Uzun tuman budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2024-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun budjet mo‘ljallarini Uzun tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga taqdim etish

MUDDATLARI

1.	Uzun tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
2.	Uzun tuman Tibbiyot birlashmasi	-	2024-yil 1-avgust
3.	Uzun tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi	-	2024-yil 1-avgust
4.	Uzun tuman Madaniyat va turizm bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
5.	Uzun tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
6.	Uzun tuman Irrigatsiya bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
7.	Uzun tuman Veterinariya bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
8.	Uzun tuman xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi	-	2024-yil 1-avgust
9.	Uzun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
10.	Uzun tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	-	2024-yil 1-avgust
11.	Uzun tuman hokimligi	-	2024-yil 1-avgust
12.	Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi	-	2024-yil 1-avgust
13.	Uzun tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust
14.	Yoshlar ishlari agentligi Uzun tuman bo‘limi	-	2024-yil 1-avgust

15.	Uzun tuman Bolalar o‘smirlar sport maktabi	-	2024-yil 1-avgust
16.	Uzun tuman fermer xujaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazi	-	2024-yil 1-avgust
17.	Uzun tuman Axborot Kutubxona markazi	-	2024-yil 1-avgust
18.	Uzun tuman 3-son musiqa va san’at maktabi	-	2024-yil 1-avgust
19.	Boshqa tashkilotlar	-	2024-yil 1-avgust